

“Qishloq xo’jaligi bo’yicha mahoratni aniqlash testi” o’tkazilish tartibi

9 sentyabr 2019 yil
(Qayta taxrir: aprel, Reiva 2 yil)

Milliy Qishloq Xo’jaligi Palatasi

“Maxsus mahoratga muvofiqlik guvohnomasi tizimining asosiy yo’nalishi” ga (Vazirlar Mahkamasi qarori, 2018 yil 25 dekabr) 3(1) va 2(U) bandlariga muvofiq, joriy qilingan “Maxsus mahorat” testi yo’nalishi” ga (Yaponiya Immigratsiya Byurosi, 30 yanvar, Reiva 2 yil) ga ko’ra, qishloq xo’jaligi soxasining 1-bandiga muvofiq, mahorat testining to’g’ri bajarilishini ta’minlash uchun “Qishloq xo’jaligi bo’yicha mahoratni aniqlash testi” sinovini o’tkazish tartibi quyidagichadir.

1. Test to’g’risida qisqacha ma’lumot.

(1) Amalga oshiruvchi tashkilot.

Milliy Qishloq Xo’jaligi Palatasi (Keyinchalik ham shu nom bilan yuritiladi).

(2) Test sinovi o’tkaziladigan til.

Test sinovi o’tkaziladigan mamlakatning mahalliy tili va yapon tili.

(3) O’tkazish usuli.

Kompyuter yordamida topshiriladigan test usulil¹ yoki an’anaviy qog’ozda topshiriladigan test usuli.

¹ savol va javoblar markaz kompyuteri yordamida beriladi va test topshiruvchilar maxsus kabinetardagi kompyuter ekranida chiqayotgan va qulqchinlarda eshitilayotgan savollarga, kompyuter ekranidagi javoblarga asoslanib, javob beradilar.

(4) Har yili testing o’tkazilish soni, vaqtি yoki joyi.

Testning o’tkazilish soni, muddati va joyi Qishloq xo’jaligi, o’rmon va baliqchilik vazirligi bilan kelishilgan holda, Milliy Qishloq Xo’jalik Palatasi tomonidan belgilanadi.

(5) Imtixon topshiruvchilarga qo’yiladigan talablar.

Imtixon topshiruvchi test sanasi kuni, to’liq 17 yoshga to’lgan bo’lishi kerak. Ya’ni, mamlakat ichida topshirayotganlar uchun vaqtincha yashash to’g’risidagi ruxsatnomasi bo’lganlar uchun mo’ljallangan, ammo Chet el hukumati yoki Adliya Vaziri tomonidan, yoki ko’rsatilgan mintaqada vakolatli organ tomonidan berilgan, passportga ega bo’lmaganlar, deportatsiya to’g’risida buyrug’I bor shaxslar testdan chetlashtiriladi.

(6) Test sinovida e'tiborga molik taraflar.

- A) Test topshirish uchun ro'yxatdan o'tishda, muhim taraflari - bu test sanasi, test o'tkaziladigan joy, testga buyurtma berish sanasi, to'lov va to'lov usullari kabi masalar, Milliy Qishloq Xo'jalik Palatasi yoki bajaruvchi tomonidan quyida 2(2) punktidagi veb-saytida joylashtiriladi (keyinchalik "Shaxsiy veb-sayt", deb yuritiladi.) Qoida bo'yicha, testda qatnashish uchun maxsus veb-saytdan tesni buyurtma berish orqali, ro'yxatdan o'tish lozim;
- B) Chet-elda test o'tkazilsa, tegishli mahalliy qonun-qoidalar asosida o'tkaziladi;
- C) Testni o'tkazish tartibiga binoan, testdan o'ta olsangiz ham, sizga "Maxsus mahoratga muvofiqlik" guvohnomasi berishiga kafolat bermaydi, balki "Yashash maqomiga ega" guvohnomasi beriladi. Test topshiruvchi, yashash maqomini o'zgartirishga ariza bergen holda ham, o'zgartirishga ruxsat berilmasligi mumkin. "Yashash maqomiga ega" guvohnomasi berilgan taqdirda ham, Tashqi Ishlar Vazirligi tomonidan o'rganib chiqiladi va har doim ham viza olish imkoniyati bo'lmasligi mumkin, bu test sinov qo'llanmasida qayd etilgan;

(7) Natijalarни e'lon qilish usuli:

Test sinovi o'tkazilgandan so'ng, 5 ish kuni ichida, test ishtrokchisi to'liq ismi, sinov nomi, sanasi, shaxsiy sur'ati, umumiy ko'rsatgichi, o'tgan yoki o'maganligi haqidagi natijasi, kabi ma'lumotlarni veb-saytdan olishi mumkin;

2. Sinovni amalga oshirish tizimi:

(1) Test sinovi savollarini yaratish tizimi:

Milliy Qishloq Xo'jaligi Palatasi, qishloq xo'jaligini boshqarish, qishloq xo'jaligi texnologiyasi, chet-elliklar uchun oliy ta'lim ekspertlaridan iborat qo'mita hisoblanib, tarkibida dehqonchilik va chorvachilik yo'naliшlaridan iborat mutaxassislardan, test sinovlari savollarini tuzish uchun maxsus qo'mita tuzadi.

Ixtisoslashtirilgan qo'mita a'zolari, 3 dan 5 gacha ko'rsatilgan mazmunga muvofiq, test savollari loyihasini tuzadi, qo'mitadan tasdiq oladi va qaror qiladi.

(2) Sinovni amalga oshirish tizimi:

Milliy Qishloq Xo'jalik Palatasi, (1) chi bandda keltirilga test sinovi savollari yordamida, "Mahoratni aniqlash" testini o'tkazadi. Test sinovi o'tkazishni, Qishloq Xo'jaligi, o'rmon va baliq xo'jaligi vazirligining ruxsati bilan ishning bir qismini, xususiy tadbirkorlik sub'yektiga topshirish mumkin.

(3) Test sinovi risoladagidek o'tishini nazorat qiluvchi, kuzatuv tizimi:

- Milliy Qishloq Xo'jaligi Palatasi test sinovlarini o'tkazadi va bu haqda Qishloq Xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik vazirligiga hisobot beradi va zarur bo'lsa, ko'rsatmalar beradi yoki nazoratga oladi.

- Milliy Qishloq Xo'jaligi Palatasi, bir yilda bir marotaba testlarning natijasiga ko'ra loyihaning samaradorligini tekshirib boradi.
- Milliy Qishloq Xo'jaligi Palatasi, firibgarlik harakatlarini amalga oshirganlarnarga nisbatan, test natijalari (shu jumladan, o'tgan test natijalari) ni bekor qilish kabi choralarini ko'rishi mumkin.

3. Test sinovi darajasi.

Agarda test ishtirokchisi Yaponiyada 3 yildan ortiq ish tajribasiga ega bolsa, u holda taxminan 70% test sinovidan o'tish darajasiga ega (qishloq xo'jaligi texnikasi, dehqonchilik va chorvachilik bo'yicha, malakali texnik stajyorlar tayyorlash, baholash testi (mutaxassis darajasi) ga teng).

4. Test bo'limlari.

Test sinovi, maxsus yo'nalish bo'yicha va amaliy sinovdan tashkil topib, (shu jumladan, tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun zarur bo'lgan, yapon tili darajasi) sinov savollari quyidagilardan iboratdir. Shunigdek, test o'tkazilish vaqt 60 daqiqa, savollar soni 70 ga yaqin (javoblar to'g'riligini tahlil qilish uchun, berilgan savollardan tashqari, bahollanmaydigan, qo'shimcha savollarni ham o'z ichiga oladi).

(1) Madaniy dehqonchilik.

1) Maxsus yo'nalish bo'limlari:

- madaniy dehqonchilik;
- xavfsizlik va sog'lom gigiyena;
- madaniy ekinlarning navlari va xususiyatlari;
- yetishtirish muhiti (ob'yektlar/uskunalar/materiallar/texnikalar);
- kultivatsiya usuli va boshqaruv;
- zararkunandalarga va begona o'tlarga qarshi kurash;
- O'rim-yig'im, tartibga solish, saqlash, jo'natish va hk.

2) Amaliy ko'nikmalar sinovi (ko'rgazmali rasmlar va rasmlarga asoslangan javob).

- tuproq kuzatuvi;
- o'g'it va pestitsidlar bilan ishlash;
- urug'larga qayta ishlov berish;
- Ish muhitini boshqarish, materiallar/uskunalar/mashinalar bilan ishlash;
- yetishtirish bilan bog'liq ishlar;
- xavfsizlik va soglom gigiyena hamda boshqalar.

3) Yapon tili

- yapon tilida, qishloq xo'jaligi bo'yicha yuklatilgan ishlar mazmunini anglay olish darajasida.

(2) Umumiy chorvachilik.

1) Maxsus yo'nalish bo'limlari:

- qishloq xo'jaligida, chorvachilik;
- xavfsizlik va sog'lom gigiyena;
- urug'chilik;
- naslchilik va fiziologiya;
- oziqlantirishni boshqarish va boshqalar.

2) Amaliy ko'nikmalar sinovi (ko'rgazmali rasmlar va rasmlarga asoslangan javob)

- individlar bilan ishslash;
- individlar kuzatuv;
- naslchilikni boshqarish, asbob-uskunalar bilan ishslash;
- maxsulotni qayta ishslash;
- xavfsizlik va sog'lom gigiyena;

3) Yapon tili

- yapon tilida, qishloq xo'jaligi bo'yicha yuklatilgan ishlar mazmunini anglay olish darajasida.

5. Test sinovidan o'tish shartlari.

Umumiy ball, Milliy Qishloq Xo'jaligi Palatasi tomonidan belgilangan o'tish ballaridan oshgan taqdirda.

6. Test sinovida firibgarlikni oldini olish chora-tadbirlari.

Test sinovi ishtirokchilar soniga qarab, nazoratchilar tayinlanadi va test sinovi me'zoniga binoan o'tkaziladi.

Shuningdek, test sinovi jarayonida firibgarlikni oldini olish chora-tadbirlari sifatida, test nazoratchilarini malakaviy o'qitish, test jarayonidagi muammolarini qattiqqo'llik bilan boshqarish, soxtalashtirishni oldini olish, ya'ni misol uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjat- passport yordamida tekshirib olish, o'zi bilan olib kirayotgan narsalarini nazorat qilish hamda uyali aloqa vositalari- smartfonlardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik.

7. Test natijalarini e'lon qilish usuli

Test sinovlari o'tkaziladigan har oyi, sanasi va joyi kabi qisqa ma'lumotlar bilan birgalikda, qatnashuvchilar soni, o'tish balli, test natijalari, Milliy Qishloq Xo'jaligi Palatasi tomonidan veb-saytda e'lon qilinadi.

8. Boshqa bo'limlar.

(1) Ballar natijalari hisoboti muddati

Ballar natijalari hisobotining amal qilish muddati 10 yil deb qabul qilingan. Shuningdek, Milliy Qishloq Xo'jaligi Palatasida test natijalari ma'lumotlarini saqlash muddati 5 yildir.

(2) Ballar to'g'risidagi hisobotni qayta chiqarish.

8(1) bo'limida ko'rsatilgan test natijalari ma'lumotlarini saqlash muddatiga binoan, ballar to'g'risidagi hisobotni, istagan vaqtida, maxsus veb-saytdan olish mumkin.

(3) Shaxsiy ma'lumotlarni saqlash.

Milliy Qishloq Xo'jaligi Palatasi tegishli qonun va qoidalarga muvofiq, qishloq xo'jaligi mahoratini tekshirish testini tuzish va amalga oshirishda, olingan shaxsiy ma'lumotlarni tegishlichcha boshqaradi.